

ONA TILI

1. Qaysi javobdagi soʻzlar imloviy jihatdan toʻgʻri yozilgan?

- A) **xususiyat, tafsilot**
 B) *daromad, sabzovot*
 C) *saxovot, zokovat* D) *halovat, forosat*

Yozma savodxonlikni baholashga qaratilgan ushbu test topshirigʻi abituriyentlardan soʻzlarning talaffuzi va yozilishi bilan bogʻliq bilim va koʻnikmaga ega boʻlishni talab etadi. A javobda berilgan **xususiyat, tafsilot** soʻzlarida hech qanday imloviy xatolik uchramaydi.

B javobdagi **sabzovot** (*sabzavot* tarzida yozilishi kerak), C javobdagi **saxovot, zokovat** (*saxovat, zakovat* tarzida yozilishi kerak), D javobdagi **forosat** (*farosat* tarzida yozilishi kerak) soʻzlari esa imloviy jihatdan xato yozilgan.

Toʻgʻri javob: A.

Manba: N.M.Mahmudov va boshqalar. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent–2020.

2. Qaysi javobda qoʻshimcha qoʻshilishi bilan bogʻliq imloviy xatolik mavjud?

- A) **Boshing koʻkga yetgan boʻlsa ham, Ustozlar ilmiga quloq sol har dam.**
 B) *Ogʻir yukdan zoʻriqqan qoʻllariga biroz dam berdi.*
 C) *Yuziga urilgan salqin shabada uni yana ham tetiklashtirdi.*
 D) *Boqqaning ikkita echki, Oʻshqirganing yer tebratar.*

Yozma savodxonlikni baholashga qaratilgan ushbu test topshirigʻi abituriyentlardan soʻzlarning talaffuzi va yozilishi, asos va qoʻshimchalar imlosi bilan bogʻliq bilim va koʻnikmaga ega boʻlishni talab etadi. Maʼlumki, joʻnalish kelishigi (**-ga**) qoʻshimchasi **-k** va **-q** undoshi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshilganda tovush oʻzgarishi bilan (**-ka** yoki **-qa** tarzida) aytiladi va yoziladi. Aks holda, imloviy xatolik sanaladi. A javobdagi **koʻkga** soʻzida xuddi shunday holat kuzatiladi, yaʼni imloviy xatolik mavjud. Boshqa javoblarda qoʻshimchalar qoʻshilishi bilan bogʻliq imloviy xatolik kuzatilmaydi.

Toʻgʻri javob: A.

Manba: N.M.Mahmudov va boshqalar. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. "Maʼnaviyat" nashriyot uyi. Toshkent–2017.

3. Qaysi gapda chiziqcha qo'llash bilan bog'liq imloviy xatolik mavjud emas?

- A) **Sen-la baxtiyorman, aziz Vatanim, Senga fido bo'lsin shu jon-u tanim.**
- B) *Senchi, sen bugun bormaysan-mi?*
- C) *Bu ishlarni bugun-oq bitiring.*
- D) *Gulzordagi och-sariq, qizil gullar nafis tebranib turibdi.*

Yozma savodxonlikni baholashga qaratilgan ushbu test topshirig'i abituriyentlardan chiziqcha qo'llash bilan bog'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab etadi. **Bilan** ko'makchisining she'riy uslubga xos qisqargan shakli (**-la**) o'zi bog'langan so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi va A javobda ushbu ko'makchining yozilishi bilan bog'liq xatolik kuzatilmaydi.

Qo'shimcha yuklamalarning ayrimlari o'zidan oldin kelgan so'zdan chiziqcha bilan ajratib, ayrimlari esa qo'shib yoziladi. Ya'ni **-mi, -dir, -oq(-yoq), -ov(-yov), -gina(-kina, -qina)** kabi yuklamalar so'zga qo'shib yoziladi. **-chi, -a(-ya), -u(-yu), -da, -ku, -e, -ey(-yey)** kabi yuklamalar o'zidan oldin kelgan so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi. Test topshirig'ining B va C javoblarida ushbu yuklamalarning yozilishi bilan bog'liq imloviy xatolik kuzatiladi. D javobda ham chiziqcha noo'rin qo'llangan, chunki sifatning daraja shaklini hosil qiluvchi **och, to'q** kabi so'zlar belgi bildiruvchi so'zlardan ajratib yozilishi kerak.

To'g'ri javob: A.

Manba: N.M.Mahmudov va boshqalar. 7-sinf ona tili darsligi Toshkent "Ma'naviyat"-2017.

4. Qaysi gapda vergul qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud emas?

- A) **Biz bugun, shubhasiz, g'alaba qozonamiz.**
- B) *Bu fikrga qo'shilmaydi balki, jon-jahdi bilan qarshi chiqadi.*
- C) *Bu safar na Nazira, na Nodira, kelmadi.*
- D) *Bizga kitob, daftar, qalamlar, kerak.*

Tinish belgilarini qo'llash bilan bog'liq yozma savodxonlikni baholashga qaratilgan ushbu test topshirig'ining A javobida xatolik kuzatilmaydi. Chunki kirish so'z (**shubhasiz**)lar gap bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi. B javobda vergulning qo'llanish o'rnida xatolik kuzatiladi, ya'ni vergul **balki** zidlov bog'lovchisidan keyin emas, oldin qo'llanilishi lozim. C va D javoblarda uyushiq bo'laklarda vergulning qo'llanishi bilan bog'liq xatolik kuzatiladi, ya'ni har ikkala gapda ham uyushiq bo'laklarning oxirgisidan keyin noo'rin qo'llangan vergul mavjud.

To'g'ri javob: A.

Manba: N.M.Mahmudov va boshqalar. Ona tili. 9-sinf uchun darslik. "Tasvir" nashriyot uyi. Toshkent—2019.

5. Qaysi javobdagi ajratib ko'rsatilgan so'z ko'chma ma'noda qo'llangan?

- A) **buloqning ko'zi**
- B) *tog' cho'qqisi*
- C) *qalin taxta*
- D) *shabadaning yugurishi*

So'z va uning ma'nosi bilan bog'liq ushbu test topshirig'ining A javobidagi ajratib ko'rsatilgan **ko'z** so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan. Qolgan javoblarda esa ajratib ko'rsatilgan so'zlar ko'chma emas, o'z ma'nosida qo'llangan.

To'g'ri javob: A.

Manba: N.M.Mahmudov va boshqalar. Ona tili. 11-sinf uchun darslik.

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent—2018.

6. Qaysi javobda ot turkumi doirasida o'zaro shakldoshlik hosil qila oladigan so'z berilgan?

- A) **ot** B) *qor* C) *afzal* D) *shoh*

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun so'z va uning atash ma'nosi hamda ularning shakldoshligi haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi.

A javobdagi so'z ot turkumi doirasida shakldoshlik hosil qila oladi, ya'ni **ot** – hayvon, **ot** – nom, ism ma'nolarini bildirgan holda omonimlik xususiyatiga ega bo'la oladi.

C va D javobdagi so'zlar esa paronimlik xususiyatiga ega so'zlar hisoblanadi: **afzal** (soz, yaxshi, tuzuk) – **abzal** (anjom), **shoh** (podsho) – **shox** (daraxt shoxi, butoq).

B javobdagi **qor** so'zi ot va fe'l so'z turkumi doirasida omonimlik hosil qiladi.

To'g'ri javob: A.

Manba: N.M.Mahmudov va boshqalar.

Ona tili. 5-sinf uchun darslik. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent–2020.

7. Qaysi javobda zid ma'noli so'zlar juftligi berilgan?

- A) **tor** – **keng** B) *qalin* – *yo'g'on*
C) *hiyla* – *xiyla* D) *xotirjam* – *bemalol*

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun zid ma'noli (antonim) so'zlar haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi.

A javobdagi **tor** va **keng** so'zlari o'zaro zid ma'noli so'zlar, B va D javobdagi so'zlar o'zaro sinonim so'zlar, C javobdagi so'zlar o'zaro paronim sanaladi.

To'g'ri javob: A.

Manba: N.M.Mahmudov va boshqalar.

Ona tili. 5-sinf uchun darslik. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent–2020.

8. Qaysi javobda tasviriy ifodaning izohi to'g'ri berilgan?

- A) **o'rmon qiroli** – **sher**
B) *kumush tola* – *makkajo'xori*
C) *dala malikasi* – *paxta*
D) *mo'yqalam ustalari* – *shoirilar*

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun so'z va uning tasviriy ifodasi haqidagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi.

O'rmon qiroli tasviriy ifodasi **sher** (yirtqich hayvon) so'ziga nisbatan, **kumush tola** tasviriy ifodasi **ipak**, **pilla** so'zlariga nisbatan, **dala malikasi** tasviriy ifodasi **makkajo'xori** so'ziga nisbatan, **mo'yqalam ustalari** tasviriy ifodasi **rassomlar**, **suratkashlar** so'zlariga nisbatan qo'llanadi.

To'g'ri javob: A.

Manba: B.Mengliyev va boshqalar. Ona tili. 11-sinf uchun darslik. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa uyi. Toshkent–2020.

9. Qaysi javobdagi **yomon** so'zi **gunoh**, **ayb** ma'nolarida qo'llangan?

- A) **Hay, Xadichaxon, o'ylab gapiring-a, birovga tuhmat qilish yomon-a!**
B) *Bolalikda o'tgan yomon kunlari esiga tushib xo'rligi keldi.*
C) *Yarasi juda yomon, juda qiynalib yotibdi.*
D) **Yomon** xabarning qanoti yengil bo'ladi, tez tarqaladi.

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun so'z va uning atash ma'nosi haqidagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi.

Yomon so'zi A javobda **ayb**, **gunoh** ma'nolarida, B javobda **tashvishli**, **behalovat**, **notinch** ma'nolarida, C javobda **og'ir**, **xavfli**, **xatarli** ma'nolarida, D javobda **noxush**, **yoqimsiz**, **sovuq** ma'nolarida qo'llangan.

To'g'ri javob: A.

Manba: N.M.Mahmudov va boshqalar.

Ona tili. 11-sinf uchun darslik. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent–2018.

10. Fe'ning birgalik nisbat shakli qatnashgan gapni toping.

- A) **Yetishibdi mozorga Ketmon-u bel ushlab.**
 B) *Men unga hazillashgan edim, ishonib o'tiribdi-ya.*
 C) *Chaqimchilik qilish yaxshi odat emas.*
 D) *Nasibaxon kirishini ham, qaytib ketishini ham bilmay qoldi.*

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun abituriyentlardan fe'l va unga xos bo'lgan xususiyatlar haqidagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi. Mazkur topshiriqning A javobida harakat-holatning bir emas, bir necha kishi tomonidan bajarilganligini bildiruvchi **yetishibdi, ushlab** fe'llari mavjud. Bunday fe'llar birgalik nisbatdagi fe'llar sanaladi. Boshqa javoblarda esa bunday xususiyatga ega fe'l mavjud emas.

To'g'ri javob: A.

Manba: N.M.Mahmudov va boshqalar. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. "Tasvir" nashriyot uyi. Toshkent—2017.

11. Qaysi javobda ot va sifat turkumiga oid juftlik berilgan?

- A) **sevgi – kuzgi** B) *muattar – iforli*
 C) *chiroy – ko'rk* D) *chiziq – qiliq*

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun abituriyentlardan so'z turkumlariga oid bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi. Mazkur topshiriqning A javobida berilgan so'zlar juftligidagi birinchi so'z (**sevgi**) faoliyat-jarayon ma'nosini bildirib, **nima?** so'rog'iga javob bo'ladi va ot turkumiga mansub so'z sanaladi. Ikkinchi so'z (**kuzgi**) esa paytga xos belgini bildirib, **qanday?** so'rog'iga javob bo'ladi va sifat turkumiga oid so'z sanaladi. B javobdagi har ikkala so'z **qanday?** so'rog'iga javob bo'ladi va sifat turkumiga oid so'zlar hisoblanadi. C va D javoblardagi har ikkala so'z ot turkumiga mansub so'zlar sanaladi.

To'g'ri javob: A.

Manba: N.M.Mahmudov va boshqalar. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. "Tasvir" nashriyot uyi. Toshkent—2017.

12. Qaysi gapda undov so'z mavjud emas?

- A) **"Albatta, mehnatning rohatini ko'rish yoqimli", – dedi bobosi.**
 B) *"Oh-oh, buncha mazali ekan bu muqaymoq!" – dedi u.*
 C) *"Hey, menga qara, Gulchehra", – dedi u.*
 D) *"Chuh jonivor", – dedi Qosimjon otiga.*

Ushbu test topshirig'ini bajarishda abituriyentlardan nutqimizda qo'llanadigan **undov so'zlar**, ya'ni his-hayajon yoki buyruq-xitob ma'nolarini bildiruvchi so'zlar va so'zlovchining o'zi aytayotgan fikriga qo'shimcha munosabatini ifodalovchi so'zlar (**modal so'zlar**) haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi. B, C, D javoblardagi **oh-oh, hey, chuh** so'zlari undov so'zlar hisoblanadi.

A javobdagi **albatta** so'zi esa ishonch ma'nosini ifodalovchi modal so'z sanaladi.

To'g'ri javob: A.

Manba: N.M.Mahmudov va boshqalar. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. "Ma'naviyat" nashriyot uyi. Toshkent—2017.

13. O'tli so'z birikmasi berilgan javobni aniqlang.

- A) **bajarilgan ish** B) *akamni ko'rmoq*
 C) *chiroyli kiyingan* D) *ishni tezlatish*

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun abituriyentlardan so'z birikmasi va unga oid bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi. A javobdagi so'z birikmasining (**bajarilgan ish**) hokim qismi (**ish** so'zi) ot bilan ifodalangan uchun o'tli so'z birikmasi sanaladi. B, C, D javoblardagi so'z birikmalarining hokim qismi (**ko'rmoq, kiyingan, tezlatish** so'zlari) fe'l bilan ifodalanganligi uchun fe'lli so'z birikmasi sanaladi.

To'g'ri javob: A.

Manba: M.Qodirov va boshqalar. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. "Tasvir" nashriyot uyi. Toshkent—2019.

14. Hol qatnashgan gapni toping.

- A) **Noshud ketganda maqtanar, Botir – qaytganda.**
 B) *Men yoz faslini yaxshi ko‘raman.*
 C) *Aytar so‘zni ayt, Aytmas so‘zdan qayt.*
 D) *Urushning boshi – o‘yin, Oxiri – o‘lim.*

Ushbu test topshirig‘ini bajarishda abituriyentlardan gap bo‘laklari haqidagi bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish talab etiladi.

Test topshirig‘ining A javobidagi gapda payt ma‘nosini bildirib kelgan **ketganda** va **qaytganda** so‘zlari **qachon?** so‘rog‘iga javob bo‘lib, fe‘l so‘z turkumi bilan ifodalangan kesim (**maqtanar**)ga bog‘lanib kelishi kuzatiladi, ya‘ni payt holi vazifasini bajargan. B javobdagi payt bildiruvchi so‘z (**yoz**) **qaysi?** so‘rog‘iga javob bo‘lib, ot so‘z turkumi bilan ifodalangan (**faslini**) to‘ldiruvchiga bog‘lanib kelgan va gapda sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajargan. C javobdagi gap aniqlovchi, to‘ldiruvchi va kesim bo‘laklaridan tashkil topgan (**aytar, aytmas** so‘zlari sifatlovchi aniqlovchi, **so‘zni, so‘zdan** so‘zlari to‘ldiruvchi, **ayt, qayt** so‘zlari esa kesim). D javobdagi **urushning** so‘zi qaratqich aniqlovchi, **boshi** va **oxiri** so‘zlari ega, **o‘yin** va **o‘lim** so‘zlari kesim vazifasida kelgan. Demak, B, C, D javoblarida holning qatnashishi kuzatilmaydi.

To‘g‘ri javob: A.

Manba: M.Qodirov va boshqalar. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. "Tasvir" nashriyot uyi. Toshkent–2019.

15. Bog‘langan qo‘shma gap berilgan javobni toping.

- A) **Ish ishtaha ochar, dangasa esa ishdan qochar.**
 B) *Shuni bilingki, Vatan muqaddasdir.*
 C) *Tegishmagin ko‘pga, Teng bo‘lasan cho‘pga.*
 D) *Bir vaqt qaragam, oyoqlarim o‘z-o‘zidan yurib ketyapti.*

Ushbu test topshirig‘ini bajarish uchun abituriyentlardan qo‘shma gap va uning turlari haqida bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish talab etiladi.

Bo‘lsa, esa so‘zlari qo‘shma gapning ikkinchi qismida kelib, qismlar orasida qiyoshlash-zidlash munosabatlarini aks ettiradi va bunday gaplar bog‘langan qo‘shma gap sanaladi.

Qismlari **-ki, -sa** kabi ergashtiruvchi bog‘lovchilar bilan bog‘langan qo‘shma gaplar ergashgan qo‘shma gaplar sanaladi. Qismlari faqat ohang yordamida bog‘langan, ya‘ni maxsus bog‘lovchi vositalarsiz bog‘langan qo‘shma gaplar bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar sanaladi.

To‘g‘ri javob: A.

Manba: N.M.Mahmudov va boshqalar. Ona tili. 9-sinf uchun darslik. "Tasvir" nashriyot uyi. Toshkent–2019.